
Farg'ona shahridagi o'rta ta'lim maktablarining kutubxona mudirlari ishtirokida seminar-trening bo'lib o'tdi.

Yozgi ta'til mobaynida bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning kitobxonlik darajasini yuksaltirish hamda ona tiliga bo'lgan sadoqatini yanada oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini tubdan yaxshilash maqsadida Farg'ona shahar 41-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida o'rta ta'lim maktablarining kutubxona mudirlari (xodimlari) ishtirokida "Kasbiy faoliyatni takomillashtirish omillari: kitobxonlik madaniyati, nutq madaniyati, shaxsiy rivojlanish" mavzusida seminar-trening tashkil qilindi.

Farg'ona viloyati hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi S.Tongotarova hamda Farg'ona shahar hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha

2022-06-22 14:45:23